



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

TARBIYA FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION VA MILLIY YONDASHUVLARNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Kurbanova Dilrabo Xaitbayevna

Guliston davlat pedagogika instituti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Ushbu maqola bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga tarbiya fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishning mazmuni va modelini o‘rganishda yangi yondashuvlarni qo‘llash maqsadning ochish imkonini berishi va ularning pedagogik faoliyatlarini yanada samarali qilishga yordam berishi masalasi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: tarbiya, tarbiya qadriyatlari, ta‘lim jarayonlari, ajdodlar, milliy kompetensiya, milliy qadriyat.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ И НАЦИОНАЛЬНЫХ ПОДХОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ДИСЦИПЛИНЫ ВОСПИТАНИЕ

Курбанова Дилрабо Хайтбаевна

Гулистанский государственный педагогический институт, базовый докторант

Аннотация

В данной статье раскрыт вопрос о том, как применение новых подходов к изучению содержания и модели совершенствования методики преподавания дисциплины воспитание будущих учителей начальных классов позволяет раскрыть цель и поможет сделать их педагогическую деятельность более эффективной.

Ключевые слова: воспитание, ценности воспитания, образовательные процессы, происхождение, национальная компетентность, национальная ценность.

PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF INNOVATIVE AND NATIONAL APPROACHES IN TEACHING THE DISCIPLINE OF EDUCATION

Kurbanova Dilrabo Khaitbayevna

Gulistan State Pedagogical Institute, Doctoral Student

Abstract

This article explores how the application of new approaches to studying the content and improving the teaching methodology of the discipline of future primary school teachers allows us to reveal the purpose and make their pedagogical activities more effective.

Keywords: education, values of education, educational processes, origin, national competence, national value.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini Tarbiya fanini o‘qitishga metodik tayyorlash ta‘lim jarayonining asosi bo‘lgan, doimiy diqqat va e‘tiborni talab qiladigan, o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan pedagogik muammo sifatida talqin qilinadi [7].

Shu nuqtayi nazardan ham tarbiyaga ixlos bilan munosabatda bo‘lib, uning tarixiy, diniy, axloqiy ildizlarini muntazam o‘rganib borish tarbiya jarayonini tashkil etish uchun olib boradigan eng samarali usul hisoblanadi. Umummilliy va madaniy merosimizni ta‘limning har bir bo‘g‘inida yoshlarimiz ongi va tafakkuriga singdirish muhimdir. Mana shu asosda biz yoshlarimiz hayotida tarbiyaga va uni egallashga keng yo‘l ochib bergan bo‘lamiz. Ta‘lim jarayoni yangi bilim, ko‘nikma va malakalar asosida rivojlanib borar ekan, egallangan bilimlarni ijtimoiy hayotimizdagi bevosita ishtirokini biz ramziy ma‘noda tarbiya deb ataymiz. Shu jumladan talabalarning nazariy bilimlarni amaliyotga qo‘llay olish jarayonini tarbiya deb olsak mubolag‘a bo‘lmaydi. Tarbiya sohasida amalga oshiriladigan faoliyatning o‘ziga xosligini pedagogika sohasida uzoq vaqt faoliyat yuritgan, tajribali olim A.S.Makarenko: “Tarbiya sohasi ba‘zi hollarda ta‘lim metodikasidan farq qiluvchi alohida sohadir” deb tasniflaydi [3; 333-334-b.]. Olimning fikricha, tarbiyaviy ish metodikasi ta‘lim mantigidan farqli ravishda o‘z mantig‘iga ega bo‘lib, ta‘lim va tarbiya ishlari pedagogikaning ikkita bo‘limini tashkil etadi.

Har bir davlat o‘z aholisini, ayniqsa bilim va yangilikka chanqoq yoshlarini ilmiy bilimlar, ma‘rifiy-ma‘naviy ozuqa bo‘ladigan yangiliklar bilan ta‘minlanishidan manfaatdordir [5]. Amalga

oshiriladigan ishlarning salmoqli hissasini yoshlar va ularning ta'lim-tarbiyasi uchun yo'naltirilishi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, yoshlarimizning ta'lim - tarbiyasi, bilimli bo'lishida o'qituvchi bilan birgalikda davlat siyosatining o'rni ham beqiyos.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil yoshlar kuni munosabati bilan so'zlagan nutqida yoshlarni qo'llab-quvvatlash dolzarb ekanligiga alohida to'xtalib: "umuman olganda, har qanday jamiyat taraqqiyotida ushbu jamiyatning kelajagi bog'liq bo'lgan yosh avlodning sog'lom va barkamol unib o'sishi, rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun islohotlarimizni kengaytirish va samaradorligini yanada oshirish masalalarida biz zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan g'ayratli, tashabbuskor, har tomonlama rivojlangan yoshlarimizni o'zimizga tayanch deb bilamiz", degan [4] edi. Shuningdek, mamlakatimizda yangi Uyg'onish davrining poydevorini shakllantirish uchun yangi Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy va Boburlarni tarbiyalash uchun muhit va sharoit yaratish zarurligini ta'kidlagan edi.

Bugungi davrdagi eng ustuvor vazifalardan biri bu katta maqsadlarni belgilash va ularga yetishish yo'lida bilimli, salohiyatli yoshlarni tarbiyalashdir. Agar ushbu vazifalarni amalga oshira olsak, yoshlar xalqimizning azaliy orzularini ro'yobga chiqaradigan haqiqiy kuchga aylanadi. Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ulardagi tashabbuskorlik, kreativ fikrlashni rivojlantirish maqsadga eltuvchi asosiy vositadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Yoshlar sammitida yigit-qizlarning dadilligi, bilimga bo'lgan ishtiyoqlari, jasur va qat'iyatligini ko'rib, bunday bilimli yoshlar bilan birgalikda yangi O'zbekistonni barpo etishga yana bir bor ishonch hosil qilganligini ta'kidlagan edi. Respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xuddi mana shu maqsadga yo'naltirilgan. Zero, ushbu masala g'oyaviy nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun prinsiplariga to'la muvofiq keladi [4].

Ta'lim-tarbiyaga oid fikrlarni o'rganishning dolzarbligi nazariy jihatdan asoslidir. Xususan, uzluksiz ta'limning milliy modeli tamoyillari mohiyatan ta'limning milliy, xalq an'analari, milliy merosimiz bilan uyg'unlikda olib borilishini anglatadi. Umuman ta'lim-tarbiyaning milliy modeliga ko'ra, ta'lim tizimini yangilash - tabiiy ravishda milliy merosimizni o'rganish va uni pedagogik tafakkur iste'moliga olib kirish jamiyatini vujudga keltirmoqda [2; 273-b].

Chin ma'nodagi shaxs o'zini-o'zi qayta tarbiyalash salohiyatiga ega bo'ladi. O'zi va millat uchun bafoyda, zararli odatlaridan voz kechadi. Millat manfaatlarini o'z manfaati, o'z manfaatini esa millat manfaatiga erishish sharti deb tushunadi. O'z vazifasini millatning kuniga yarash, og'irini yengil qilishda ko'radi. Shu sababli u o'z shaxsiy qobig'idan chiqib ko'tariladi va millat manfaati uchun, millat farovonligi orqali o'zini kamolotga erishtirish uchun boshqalardan ko'proq, samaraliroq mehnat qiladi. Umummilliy g'oya, maqsadga ishonadi, uni himoya qiladi. Talabada bu fazilatlar birdaniga paydo bo'lib qolmaydi. U, avvalo, oilada ota-ona, oiladan tashqarida qarindosh-urug', qo'shni-mahalladoshlar orasidagi tarbiyaviy muhitni rag'batlantirib borish, so'ngra oliy o'quv yurtida bilimlarni egallash orqali tarbiyalanadi. Oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim olayotgan talabalarda nafaqat egallangan ta'limni baholash, balki tarbiyaviy jihatlariga ham e'tibor berish zaruriyati vujudga kelmoqda. Shu sababli bu jarayonga ijtimoiy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qarash lozim. Ta'lim jarayoni dunyo bo'yicha turli mamlakatlarning yaqinlashuvi, tom ma'noda global, insoniyat sivilizatsiyasi taqdiri uchun hal etuvchi ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab omillar bilan belgilanadi. Bu omillar orasida yuzaga kelgan umumiy va milliy o'ziga xosliklar alohida ahamiyatga ega. Ta'lim - tarbiyaning muhim sohalaridan biridir. Bundan ko'rinib turibdiki, tarbiya inson rivoji va shakllanishi uchun zarur bo'lgan barcha omillarning asosidir.

Navqiron avlod davr ruhida ma'naviy kamol topib, buyuk ajdodlarimiz barhayot mevasidan oziqlanib, zamonaviy bilimlarni egallab, ularni ongi, shuuriga singdirib borilmas ekan, bizning o'z oldimizga qo'ygan ulug'vor maqsadlarimizga erishishimiz, nurli istiqbolimizni bunyod etishimiz ham qiyin. Mana shu bois ham yoshlar tarbiyasi, ularni barkamol insonlar etib shakllantirish, voyaga yetkazish masalasi har doim davlatimiz oldidagi birinchi darajali vazifalardan biridir. Ajdodlarimizning yaratuvchanligi shaxs manfaatlariga qaratilgan bo'lsa, ayni vaqtda mustaqil davlatimizda amalga oshirilayotgan barcha yangiliklar ham inson kelajagi uchun xizmat qilishi ko'zda tutilgan. Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimi va milliy meros asosidagi g'oyaviy uyg'unlik ta'lim-tarbiya jarayonida milliy merosning ma'naviy-ma'rifiy zaminlariga tayanish zarurligini ham anglatadi. Shu jihatdan olib qaraganda o'tmish allomalari, mutafakkirlarining ma'naviy meroslarini yosh avlodning tarbiyasidagi ahamiyati bugungi kunda ham g'oyat beqiyosdir.

Markaziy Osiyoda tarbiyaga oid pedagogik qarashlarni rivojlanish tarixi o'rganilganda ta'limda turli usullarning amaliyotda qo'llanilganini ko'rish mumkin. Sharqda azaldan yosh bolalarni tug'ilganidan

boshlab voyaga yetgunigacha ma'lum tartibda tarbiyalab borilgan. Bolalarni yakka tartibda o'qitishdan ko'ra jamoa tartibida o'qitilishi afzal deb hisoblangan. Bu uslubning ustunligi shundaki talabalar o'qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadi. Ular birga ta'lim olganlarida doimo bir-birlari bilan muloqotga kirishadilar hamda bu ularning tarbiyasi va nutqlarini rivojlantiradi. Ushbu holatdan shu narsa aniq bo'ladiki, tarbiya ijtimoiy hodisa bo'libgina qolmay, jamiyat a'zolarining o'zaro aloqalarini rivojlantiruvchi, tartibga soluvchi muhim asos ham hisoblanadi. Jadid namoyandalardan Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida "Turkiy guliston yoxud axloq" asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganishda katta ahamiyatga molik asar hisoblanadi. "Turkiy guliston yoxud axloq" asari axloqiy va ta'limiy tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni "yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlardan qaytaruvchi" ilm-axloq haqida fikr yuritiladi [2; 273-b]. Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasining roli haqida ko'plab fikr yuritib, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g'oyat katta ahamiyatga ega.

O'zbek pedagogikasi tarixida Abdulla Avloniy birinchi marta pedagogikaga "Pedagogika", ya'ni bola tarbiyasining fanidir, deb ta'rif berdi. Tabiiy bunday ta'rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi. Mutafakkir bola tarbiyasini to'rt bo'limga ajratadi.

1. "Tarbiyaning zamoni".
2. "Badan tarbiyasi".
3. "Fikr tarbiyasi".
4. "Axloq tarbiyasi"

"Tarbiyaning zamoni" bo'limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta'kidlaydi. "Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir", deb uqtiradi Avloniy [6]. Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq, deb hisoblaydi adib. Tarbiya zurriyat dunyoga kelgandan boshlanib, umrining oxiriga qadar davom etadi. U bir qancha bosqichdan - uy, bog'cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan tashkil topgan. Tarbiyaning zamoni haqida to'xtalar ekanmiz, u tarbiyaning asosini tashkil qilishini anglashimiz mumkin bo'ladi. Chunki badan tarbiyasi yoki fikr tarbiyasi ham aynan tarbiya zamonida amalga oshadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda asosiy urg'uni tarbiya oluvchiga emas, tarbiya beruvchi shaxsiga qaratish o'rinli deb hisoblaymiz. Taqlid va andoza olish nuqtayi nazaridan boshlang'ich sinf o'quvchilari juda faol bo'ladilar. Nazariy bilimlar asosiga emas, bevosita amaliy tajribalar asosiga qurilgan ta'lim ustuvor va beqiyosdir. Ta'lim - talaba bilishi, egallashi kerak bo'lgan bilimlar manbai bo'lsa, tarbiya - o'zlikda mujassam bo'lgan bilimlarni ya'ni nazariyani bevosita amaliyotga tatbiqi sifatida qaralishi o'rinli bo'ladi. Abdulla Avloniy tarbiyani turli doiralarda turlicha, keng ma'noda talqin qiladi. Tarbiya birgina odob-axloq bilan chegaralanmaydi. Mutafakkir birinchi navbatda bolaning sog'ligi haqida g'amxo'rlik qilishi lozimligini aytadi. Adibning izoh berishicha, sog'lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lishi uchun badanni tarbiya qilish zarur. "Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir. Chunki o'qimoq, o'qitmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir" [5] deya ta'kidlaydi. Mutafakkirimiz badan tarbiyasini olib borish masalasida ota-onalarga murojaat qilsa, bolani fikr tomondan tarbiyalashda o'qituvchilarning faoliyatlariga alohida e'tibor beradi. Ya'ni tarbiyali shaxs voyaga yetkazishda ota-ona va o'qituvchilarning ahamiyatini yuksak baholaydi. Shuning uchun ham bizning ajdodlarimiz, yoshi keksalarimiz ta'lim-tarbiya masalasida inson shaxsi uning xususiyatlarini hisobga olib ish ko'rganlar.

Tasavvuf olamining allomalari Najmiddin Kubro, Fariddin Attor, Bahovuddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Aziziddin Nasafiy, Alisher Navoiylarning ijodiy faoliyati, boy ma'naviyati tufayli milliy tarbiya tizimining asoslari vujudga keldi.

Bu allomalarning asarlari o'rganish natijasida shu narsa ravshanlashadiki, tananing sog'lomligi nafaqat fikrning teranlashishini balki, uning ravshanlashishini ham kafolatlaydi. Zero, ko'plab allomalarimizning asarlarida ham bu o'z aksini topgan. "Munosib inson bo'lish uchun odamga ikki imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati berilgan. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa, bu kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir" [7], deydi Abu Nasr Forobiy o'z asarida. Bundan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'qitish jarayonida nafaqat ta'lim tizimini mukammal, balki tarbiyaviy jarayonlarni ham keng qamrovda olib borish kerakligini anglaymiz.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini Tarbiya fanini o'qitishga metodik tayyorgarligini

takomillashtirishda biz nafaqat bugungi kunda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarga, balki boy ma'naviy merosimiz va mutafakkirlarimiz merosiga ham tayanamiz. O'z ajdodlariga hurmat ruhida tarbiyalangan avlod qadriyatlarimiz va o'ziga xos tarbiyamiz asosi bo'lib xizmat qiladi. Tarbiya ko'rganlikning quyidagi asosiy farqlarini ko'rsatish mumkin. Xususan, jamoa to'g'ri deb topgan narsani noto'g'ri deb qaramaslik, o'z nafsigga erk bermaslik, birovdan ayb qidirmaslik, yomonlikni yaxshilikka yo'yish, agar gunohkor uzr so'rasa, uzrini qabul qilish, muhojirlar hojatini chiqarish, el g'amini yeyish, o'z aybini tan olish, fuqarolar bilan ochiq yuzli va shirin muomalada bo'lish. Bu farqlarni o'zgarishlar bilan bir qator sharq allomalari qarashlarida ham kuzatishimiz mumkin. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar negizida ham ajdodlarimizning boy merosi o'z aksini topgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini Tarbiya fanini o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishda o'qituvchi pedagogik ko'nikma va malakasiga qo'yilgan zamon talabi darajasidagi yangi talablar aniq maqsad va yo'nalishlarini belgilashda, uning shakli, mazmuni, metodlari, o'quv-metodik ta'minoti tarkibi va ularga qo'yiladigan vazifalarni aniqlashda asosiy mezon bo'lib xizmat qilishi aniqlandi. O'quv-metodik ta'minotni o'quv dasturi, yangi avlod o'quv rejasi, yangi darsliklarni amaliyotga samarali joriy etish, o'quv-metodik ta'minotni modernizatsiyalash (zamonaviylashtirish) orqali o'quv-bilish jarayoni sifatining samaradorligini ta'minlash, o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish yoki o'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash, o'zini o'zi boshqarish, mustaqil ta'lim olish motivlarini rivojlantirish kabi yo'nalishlarda takomillashtirish maqsadga muvofiq deb topildi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini Tarbiya fanini o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonini tahlil qilish asosida o'quv-metodik ta'minotni takomillashtirish mexanizmini joriy etish kabi kompleks chora-tadbirlar orqali Tarbiya fanidan innovatsion yondashuvga asoslangan o'quv-metodik qo'llanmalar va tavsiyalar, ma'ruza matnlari, dars ishlanmalari, o'quv-metodik majmualar, multimedialarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan elektron resurslarni yaratish va takomillashtirib borish katta ahamiyatga egaligi qayd etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 168 b.
2. Mavlonova R., Raxmonqulova N., Voxidova N., Matnazarova K. Pedagogika (umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti): darslik. – Toshkent, 2013. – 273 b.
3. Makarenko A.S. Sochineniya: v 8 t. T. 5. – M.: APN SSSR, 1985. – 333 s.
4. Mirziyoyev Sh.M. "Azmu shijoatli yoshlarimiz bilan birgalikda Yangi O'zbekistonni albatta bunyod etamiz" // Yoshlar kuni munosabati bilan so'zlagan nutqi.
5. Xaydarova M.Kh. Development and Growth of Education [Elektron resurs]. – URL: <https://mjstjournal.com/index.php/icms/article/view/966/2531>
6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
7. Aksiologiya [Elektron resurs]. – URL: Wikipedia Aksiologiya <https://uz.wikipedia.org/wiki/Aksiologiya>